

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

## ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA RAMZ VA TIMSOLLAR (umumta‘lim maktabi darsligi misolida)

**Adolat Nuraliyeva**

O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek  
adabiyotshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi  
E-mail: [adolat.nuraliyeva.87@mail.ru](mailto:adolat.nuraliyeva.87@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning umumta‘lim maktablarida ijodi o‘rganilishi, 9-sinf darsligi va majmualariga kirgan “Farhod va Shirin” dostonining tahlili to‘g‘risida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** umumta‘lim maktab 9-sinf darsligi, Alisher Navoiyning umumta‘lim maktablarida ijodiy faoliyati o‘rganilishi, o‘qitilishi, talqini, tahlili.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается изучение творчества Алишера Навои в общеобразовательных школах, анализ эпоса «Фархад и Ширин», включенного в учебники и сборники для 9 классов.

**Ключевые слова:** Учебник для общеобразовательной школы для 9 класса, изучение, преподавание, интерпретация, анализ творческой деятельности Алишера Навои в общеобразовательных школах.

**Annotation:** This article discusses the study of Alisher Navoi's work in secondary schools, the analysis of the epic “Farhad and Shirin” included in the 9th grade textbooks and collections.

**Key words:** General education school 9th grade textbook, study, teaching, interpretation, analysis of Alisher Navoi's creative activity in general education schools.

**Yozib jon mus‘hafidan ikki oyat,  
Debon Farhod-u Shirindan hikoyat**

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy dunyo tafakkuri tarixida o‘zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma‘naviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g‘oyalari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan so‘z san‘atkoridir. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘lmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuxratini butun dunyoga tarannum etdi. Insonning baxtli hayot yo‘lidagi kurash va orzularini kuylagan asar uzoq yashaydi, uning qahramonlari esa abadiy bo‘lib qoladi. O‘zi yashab ijod etgan davrning eng muhim masalalarini to‘g‘ri payqab, ularga javob qidirgan va shu bilan jamiyat manfaatlari yo‘lida xizmat qilgan Qalam sohibi zamonamizning va xalqimizning buyuk kishisiga aylandi. Shu jihatdan Alisher Navoiyning “Xamsa” si takibidagi ikkinchi “Farhod va Shirin” dostoni bilan adabiyotimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi. O‘z davri

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

adabiy hayotining yangi ravnaqiga qancha hissa qo‘shgan bo‘lsa, uning so‘nggi istiqboli uchun ham shuncha zamin yaratib berdi.

“Xamsa”ning bu ikkinchi dostoni ishqiy-sarguzasht xarakteridadir. Doston 54 bob, 5782 baytdan iborat. Shundan muqaddima 11 bobni o‘z ichiga oladi. Aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Muallif bu asarni “shavq dostoni” deb ataydi. Sababi unda ishq kuylanadi, ishq talqin qilinadi, ishq ulug‘lanadi. Bu shunday ishqki, u insonni poklaydi, ezgulik sari yetaklaydi, unga o‘zligini tanitadi, bir so‘z bilan aytganda, komillik sifatlarini tarbiyalaydi. Chunki u odamga, olamga, butun borliqqa mehr bilan, muhabbat bilan yo‘g‘rilgan va oxir borib Yaratganning o‘ziga ulashib ketadigan ishqdir [2. 130].

Binobarin, dostonda Navoiyning komil inson haqidagi orzu o‘ylari ifoda etilgan. Ijodda o‘ziga xoslikka intilgan adib o‘zigacha bo‘lgan bu doston an‘anasiga ijodiy yondashadi. Doston Navoiygacha “Xusrav va Shirin” shaklida mashhur edi. Ularda markaziy obraz shoh Xusrav edi. Lekin u komillikdan yiroq, ishqda beqaror, muhabbatdan toj-taxtni ustun bilguvchi xudbin shaxs. Shuning uchun Navoiy uni Shirinning muhabbatiga ham, yozilajak dostonidagi bosh obraz darajasiga ham loyiq ko‘rmaydi. U Farhodni bosh obraz qilib oldi va bu bilan dostonning qurilishini, mazmunini tamomila o‘zgartirdi [1. 120].

Mazkur o‘zgarish xamsachilikka Navoiy kiritgan eng katta yangilik edi. Umumta’lim maktablarining 9-sinf darsligida an‘anaga ko‘ra dostonlardan parcha keltirilgan bo‘lib, Alisher Navoiy orzusidagi komil va yetuk shaxs Farhod, Shirin obrazlari, o‘quvchi-yoshlarga tarbiya va ta’lim bera oluvchi asosiy dostonlardan biri hisoblanadi.

Dostonda syujet ortida asosan ramziy, shuningdek, majoziy ma’nodagi irfoniy (so‘fiyona) haqiqatlar yashiringan. Har bir obraz, lavha ortidagi ana shu haqiqatlarni anglabgina dostonning asl ma’nosiga yo‘l topish mumkin. Dostonning mohiyatini yoritishdagi Hazrat Navoiyning poetik mahorati e’tiborlidir. Chunki doston, avvalo, badiiy adabiyot namunasidir. Navoiy dostonidagi mazmunni, har bir fikrni go‘zal badiiyat qobig‘ida berishga intiladi. Darslikda berilgan parchadagi dastlabki baytlarga e’tibor qaratsak.

*Shabistonida tug‘di bir yangi oy,*

*Yangi oy yo‘qki, mehri olamoroy. [5. 86].*

shabiston – kechasi, tug‘di – tug‘ildi, yangi oy – Farhod nazarda tutilmoqda, mehri olamoroy – olamni yorituvchi quyosh.

Xoqonning hayoti Farhod tug‘ilgunga qadar farzandsizlik tufayli qorong‘u kechadek qayg‘uli bo‘lganligi shabistonga o‘xshaydi. Ana shu o‘xshatilayotgan narsa tushib qolib, uning ma’nosi o‘xshayotgan (shabiston)ga, misra davomida *Farhod* so‘zi

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

tushib qolib, uning ma’nosi *yangi oyga* yuklangan va istiora orqali go‘zal badiiy ifoda yuzaga kelgan.

*Demonkim, ko‘ngli pok-u, ham ko‘zi pok,  
Tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pok. [6. 79].*

Farhodni faqat ko‘ngli pok-u ko‘zi pok demayman, ayni paytda uning tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pokdir. Baytda takrir - bir so‘zni davomli qo‘llash orqali ma’noga, ya’ni bosh qahramonning ham tashqi, ham ichki olami pok ekanligiga urg‘u beradi. Ayni paytda so‘z takrori satrlarga ajib bir musiqiylik ato etgan.

Dostonning beshinchi bobi me’roj tuni ta’rifiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Payg‘ambar (s.a.v.) ning Buroq oti yordamida Alloh huzuriga yo‘l olganliklari tasviri beriladi. Rasuli akram 12 burj va 7 sayyoralarini oshib o‘tib, Lomakonga ko‘tariladilar, “qoba qovsayn” (ikki yoy oralig‘ida) darajasida Allohga yaqinlashadilar va foniy maqomiga erishadilar. Payg‘ambarimizning (s.a.v.) muborak chehralarini tasvir qilgan Navoiy Farhod va Shirin obrazlari portretini ham ana shu ifodaga yaqin tarzda tasvirlangan. [8. 39].

Darslikda keltirilgan parcha dostonning asosiy qismi o‘n ikkinchi bobdan boshlangan bo‘lib, doston syujeti qisqacha yoritilgan. Alisher Navoiy dostonning nomini o‘zgartiribgina qolmay, o‘zining orzusidagi komil shaxs obrazini dostonning na’t qismida aks ettirgan Rasululloh (s.a.v.) ga xos fazilatlarni keyinroq dostonning asosiy qismida Farhod obraziga ko‘chirgan. Dostonda Rasulullohning (s.a.v.) maxsus ta’lim olmasdan turib ilohiy hikmat bilan o‘ta chuqur ilmga ega bo‘lganliklarining ta’kidlanishi bejiz bo‘lmay, Farhoddagi olimlik va oriflik ilohiy lutf bilan amalga oshganiga ishoradir. Aynan ushbu na’t qismi darslikda keltirilmagan bo‘lsada, asar tahlili jaryonida o‘quvchilarga o‘rgatilmog‘i, tahlil qilinmog‘i va o‘qitilmog‘i joizdir. Chunki, o‘quvchi shaxsida komil shaxs, yetuk shaxs, puxta ilm egasi tushunchalari aynan na’t qismlari bilan o‘qitilishi nazariy va ilohiy tushunchalar ochiqlanishi ta’minlangan bo‘ladi nazarimizda. Farhod va Shirin shunchaki bir-biriga ko‘ngil qo‘ygan yigit va qiz timsollarigina emas. Dostonda Farhod — poklanish matlabi ila komillik sari intilayotgan solik ruh (mo‘min, muslim banda)ning timsoli. Uning tasavvuf yo‘li – tariqat orqali haqiqiy mahbub – o‘z Yaratuvchisi tomon intilishi, bu yo‘ldagi mashaqqatlari ramziy va majoziy shaklda tasvirlanganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Me’roj voqeasidagi haqidagi bobda esa “Chin” so‘zining keltirilishi va so‘z bilan bog‘liq badiiy san’atlarga murojaat qilinishi na’tlar boshqa muqadimma boblari kabi dostonning asl mazmunini ochishga xizmat qilganligini ko‘rsatadi. Mazkur bosh qahramonning yurti bo‘lmish Chin mamlakati ham ramziy bir makon. Negaki o‘tmishda Chin (Xitoy) da musulmon dinida bo‘lgan xoqon o‘tganligi, yolg‘iz o‘g‘il farzand

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ko‘rib, uni Qur‘on yod oldirgani haqida gapirish, badiiy asarda bo‘lsa-da, tarixiy haqiqatga emasdir. Chin qadimdan ajdodlarimiz tomonidan donishlik, san‘at, naqsh va nafosat o‘lkasi sifatida qabul qilingan va e‘tirof etilgan. Navoiy e‘tiqodining asosi bo‘lgan naqshbandiylik ta‘limotiga ko‘ra iymon va islom deya atalmish haqiqiy (ya‘ni ko‘ngilga solinadigan go‘zal ma‘naviy) naqsh, nafosat va donishlik inson qalbida bo‘lmog‘i darkor. [6. 86].

Ko‘rinadiki, ana shu fazilatlar bilan bezangan makongina haqiqiy Chin hisoblanadi. *Chin* so‘zining ona tilimizda asil, haqiqiy so‘zlari bilan ma‘nodoshdir. Navoiy bu bilan pokiza islomiy e‘tiqod, iymon ustuvorligi, haqiqat va adolat hukmron bo‘lgan yurt, jamiyat va insonning ko‘ngil olami asl Chin mamlakati (haqiqiy insoniy davlat) bo‘ladi degan fikrni ilgari suradi. Aks holda u soxta, chirkin, tanazzuli muqarrar bir muvaqqatlikdan boshqa narsa emas.

“Farhod va Shirin” dostoni majoz va haqiqatni, ramziylik va hayotiylikni san‘ankorlik bilan qo‘shib olib boradigan doston ekanligi shu ilk boblardan boshlab namoyon bo‘la boshlaydi. A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” kitobida yozilishicha, Navoiy qazoni Farhodga, osmonni Farhodga aloqador Besutun tog‘iga, aqlni Chin xoqonining vaziri Mulkoroga va donishmand Suqrotga, tunni Xusrav Parvezning oti Shabdezga, qadarni Farhodning do‘sti Shopurga, ajalni otasini o‘ldirgan Parvezning o‘g‘li Sheruyaga, zamoni Parvezning sozandasi Nakisoga o‘xshatgani holda “shirin”, “tilsim” so‘zlarini, Besutun, Xisrav va uning ashulachisi Bobad nomlarini tilga olib, muqaddimani dostonning mundarijasiga uyg‘unlashtirgan. [11. 175].

Shu bilan barobarda, bu o‘xshatishlar zamirida adib doston mundarijasida qahramon va timsollar faoliyati kechimi va dostonda qanday rol o‘ynashi bilan ham o‘quvchi kitobxonni tanishtiradi nazirimizda.

Dostondagi bosh qahramonlarning o‘zlari ham ramziy ma‘no kasb etadi. Shirin Farhod uchun jismda jon kabi asraladigan nihoyatda go‘zal, o‘ta nafis va nozik iymon ko‘zguvidir. Shunday ko‘zguvi, unda Yaratganning jamoli jilva qiladi. Farhodning Arman yurti (bu ham ramz) – Shirinning huzuriga bo‘lgan yo‘ldagi tortgan azoblari bir insonning komillik yo‘lida chekadigan mashaqqatlarining timsollari edi. Farhod yoshi ulg‘aygan sari qayg‘uli va xastadil bo‘lib boradi. Xoqon Farhodning ko‘nglini ochish, hazin kayfiyatini ko‘tarish uchun yilning to‘rt fasliga moslab to‘rt qasr qurdiradi. Shu asnoda Farhod Qorandan tosh yo‘nish, Boniydan me‘morlik, Moniydan naqqoshlik sirlarini o‘rganadi. Lekin u egallagan bilimlar, o‘rgangan hunarlar zohiriy (dunyoviy) bilimlar bo‘lib, ilohiy sir-u asrorni ochishga kifoya qilmaydi. Shu bois u qancha ilm, hunar o‘rganmasin, qalbida kechayotgan iztiroblarni oxirigacha ko‘tara olmaydi, chunki

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

uning iztiroblari dunyoviy tashvishlardan ancha ustun turardi. Demak, undagi katta bo‘shliqni to‘ldirishda pir-rahnamo darkorligini ijodkor mohirona talqinlar ila tarihiy voqelik va buyuk shaxslar ishtirokida boyitganligini ko‘ramiz. Farhodning Yunonistonga safari voqealari tasvirida ramziylik yanada kuchayadi. Yunon donishmandlari yasagan, Iskandardan qolgan “hikmat ko‘zgusi”ning tilsimini ochishni faqat Suqrot o‘rgatishi mumkinligini ishoralar bilan bayon etadi. Suqrot bilan uchrashishga ahd qilib yo‘lga chiqqan Farhod dastlab Suhaylo bilan uchrashadi. Suhaylo Suqrot darajasida emas, u ko‘zguninig sehrini ochishda qurbsiz, lekin Suqrotga yetishish yo‘li, dushmanlarini yengish sirlaridan xabardor ekanligi keltiriladi. [5. 99].

Aynan ushbu voqea jarayonlari o‘quvchi-yoshlar uchun ta‘lim va tarbiya berishlik bilan barobarida tasavvuf ta‘limoti ham oz-ozdan o‘rgatib borilmog‘i, ya‘ni asardagi majoziy obrazlar, timsollar va ramzlar tahlil qilinmog‘i darkordir. Asarning aynan tasavvuf ta‘limoti bo‘yicha tahlili jarayonida adabiyotshunos olim Najmiddin Komilovning “Tasavvuf” nomli kitobidan foydalangan holda o‘quvchilarda kengroq tushunchalar paydo bo‘lishiga zamin yaratiladi. Ushbu kitobda yozilishicha, Suhaylo Farhodning tariqat yo‘lidagi birinchi piridir. U Farhod yengib o‘tishi kerak bo‘lgan to‘siqlar: ajdarho va devdan xabar beradi. Tasavvufda ajdarho – nafs timsoli, dev – saltanat timsoli hisoblanadi. Suhaylo Farhodga ajdarhoga ajdarhoni yengish uchun samandarning yog‘ii beradi. Samandar – olov ichida yashaydigan jonivor. U – ishq ramzi. Farhod badaniga samandar yog‘ini surganda, ajdarhoning o‘ti unga kor qilmaydi, ya‘ni ishq otashi nafs otini so‘ndiradi. Shuningdek, Farhodga keyingi manzillarda uchraydigan sher va temir paykarning ham ramziy ma‘nosi bor. Sher - g‘azab timsoli, ilohiy ishq yo‘liga kirayotgan solikda esa g‘azab bo‘lmasligi kerak. Temir paykar - ro‘yo, yolg‘on dunyo ramzi. Solik dunyo mo‘jizalariga chalg‘imasligi, ularga ko‘ngil qo‘ymasligi kerak. Farhod temir paykarni ham yengib, nihoyat Suqrot dargohiga kirib boradi. Aslida Suqrot timsolining asar tarkibiga kiritilishi tasodifiy bo‘lmay, bosh maqsadni ochib berish yo‘lidagi muhim vositadir. Suqrot piri komil timsoli bo‘lib, usiz Farhodning o‘z maqsadiga erishishi mumkin emas edi. Navoiy Suqrotni quyosh kabi porloq siymo, jismi pok ruh kabi, shaxsi aqlning haykali deb ta‘riflaydi. U kamolot cho‘qqisini egallagan komil inson, o‘zi bir joyda o‘tirsam ham, ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Jamshid jomi, Iskandar ko‘zgusi ham uning ko‘ngil ko‘zgusi oldida xira. U Farhod bilan yakkama-yakka suhbatlashib, uni o‘z farzandiday e‘zozlaydi [7. 133].

Tasavvufda ishq deganda faqat mehr, sevgi kabi tuyg‘ulargina emas, ulardan tashqari yana iroda, sabot, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, g‘ayrat, kamtarinlik, adolat, saxiylik, halimlik, mardlik, hayo, pokizalik, shirinso‘zlik, shafqat, umuman, inson qalbini, ruhini poklashga xizmat qiladigan, uni Ollohga

# “ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmij xalqaro konferensiya materiallari

yaqinlashtiradigan barcha ezguliklar, pokliklar yig‘indisi tushuniladi. Ishqning o‘rni ko‘ngilda bo‘ladi. Ko‘ngil ishq tufayli poklanadi. Ko‘ngil poklansa, ishq yana-da o‘tli, nurli bo‘ladi, ilohiy mohiyat kasb etadi. Tasavvufga ko‘ra ko‘ngilni poklash ham bir ilmdir. Ilm esa ustozlardan o‘rganiladi. Farhodning ustozlaridan kasb o‘rganishini yodga olinsa ular shunchaki hunarmand ustalar obrazi emasdi. Boniy - ko‘ngilga ishq binosini qurgan va qurishni o‘rgatgan piri komil. Moniy - Olloh ishqini qalbgga naqshlash sirlarini anglatgan ustoz. Qoran - ko‘ngildagi toshdan ham qattiq nafsoniy istaklarni parchalash ilmini bildirgan murshid. [9. 114].

Bir so‘z bilan aytganda, u insoniy o‘zligini yo‘qotmay, poklanish yo‘lida davom etadi. Poklanishga erishgan komil inson ayni paytda yuksak axloq va odob timsoliga aylanadi. Shu ma’noda Farhod o‘zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komil inson obrazidir. Demak, inson har bir xatti-harakati, aytayotgan so‘zi, muomalasi va amali bilan o‘zaro ikki qarama-qarshi kuchlardan biri - yo iymon, yo shayton tomonida bo‘ladi. Navoiy saboqlaridan xulosa shuki, har birimiz uchun Farhod yo‘li - ishq, iymon yo‘li mashaqqatli, ammo oxiri xayrli, sharaflil, aks holda, Xusrav va Sheruya timsollarining topgan qismatlari bizga bir ibratdir.

## Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. – Ye.: Fan, 1991, 8-jild
2. Alisher Navoiy. Xamsa: Farhod va Shirin. TAT. 10 jildlik – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2011. 6-jild
3. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2006
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin (nasriy bayoni bilan)Tahrir hay‘ati: A.Qayumov va boshq. - T.: Adabiyot va san‘at, 1989
5. Adabiyot xrestomatiyasi. O‘rta maktabning 9-sinfi uchun, 8 nashri. – T.: O‘qituvchi, 1971
6. Adabiyot. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf uchun darslik 1 qism. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3 nashri. – T.: Yangiyo‘l poligraf servis 2014
7. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – T.: Movarounnahr – O‘zbekiston NMIU, 2009
8. Dilnavoz Yusupova. Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2011
9. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddum, 2019
10. Hamidulla Boltaboev. Sharq mumtoz poetikasi. – T.:O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006
11. Alibek Rustamov. Navoiyning badiiy mahorati. – T.: Adabiyot va san‘at, 1979